IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026

SOVETLAR DAVRIDA O'ZBEKISTONDA QAYTA QURISH SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI

Mansurova Dilnura
Guliston davlat pedagogika instituti
22-25 guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23204346

Annotatsiya: Sovetlar davrida O'zbekistonda qayta qurish siyosati,ijtimoiy,siyosiy oqibatlari qayta qurish siyosatini bosqichlari ,qayta qurishning konseptual jihatlari,qayta qurish va partiyaning kadrlar siyosati,qayta qurish siyosati tashabbuskori.
Kalit so'zlar: Qayta qurish,Gorbachyov,paxta,iqtisodiyot,milliy munosabatlar qishloq xo'jaligi.

Qayta qurish bu-''Petrestyorka'' -1980-yil o'rtalarida sovet ittifoqida M.Gorbachyov boshchiligida boshlangan va keng iste'molga kirgan siyosiy-iqtisodiy islohotlar dasturidir.Qayta qurish siyosatining asosiy maqsadlari SSSR da to'planib qolgan ijtimoiy,siyosiy,iqtisodiy,madaniyva mafkuraviy muammolarni ''qayta qurish''orqali hal qilishga qaratilgan siyosat edi.Qayta qurish jarayonida Sovet ittifoqi tomonidan jamiyatning turli sohalarida islohotlar o'tkazishni,iqtisodiy tizimni bozor tamoyillari asosida modernizatsiya qilish,siyosiy tizimda oshkoralikni taminlashni va siyosiy pluralizmni rivojlantirish ko'zlangan edi.

SSSR dagi ''qayta qurish''siyosati avvalo siyosiy sohani qamrab oldi.Bu davrda SSSR ning tarkibiy qismi bo'lgan O'zbekiston SSR ham qayta qurish girdobiga tortildi.Uning qonuniyatlariga amal qiladi.Bundan ko'rinib turubdiki qayta qurish jarayoni O'zbekistonga ham yetarlicha ta'sir ko'rsatdi.Ammo qayta qurish siyosati sobiq SSSR da to'planib qolgan muammolarni to'la hal etishga xizmat qilmaydi.Afsuski,mustaqillik demokratiya va erkinlik g'oyalariga to'g'ri kelmaganligi tufayli ham amaliy samara bermadi.Bu jarayon oxir oqibatda KPSS ning halokati va SSSR ning tugashiga muayyan ta'sir ko'rsatib bunga turtki bo'ldi.

Qayta qurish siyosati SSSR da (1985-1991) yillar oralig'ida bo'lib o'tdi va bu juda katta ahamiyat kasb etdi.Qayta qurish siyosati 2 bosqichda bo'lib o'tdi.Ya'ni qayta qurishning birinchi bosqichi (1985-1986) yillar asosan bu bosqichda ma'muriy-tashkiliy tadbirlarning an'anaviy usullarda olib borilishi bilan belgilandi.Bu bosqichda asosiy vazifalardan biri kun tartibga qo'yilgan va unga asoslangan ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga jalb etish asosida jamiyatda tub iqtisodiy tarraqiyotni jadallashtirish va uning asosida insonni omilini faollashtirish dan iborat bo'ladi.Ya'ni bu bosqichda ko'rinib turubdiki asosiy e'tibor mamalakat iqtisodiyotini rivojlantirish ,fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish ga qaratildi.Buni amalga oshirish uchun KPSS XXVII syezdi fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish masalasiga katta e'tibor qaratilgan edi. Xullas qayta qurishning dastlabki bosqichida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratildi.

Qayta qurishning ikkinchi bosqichi (1987-1990) yillar boshlandi.Bu bosqichda asosan jamiyatning barcha jabhalarini kompleks tarzda isloh qilishni maqsad qilindi Bu bosqichda

asosan siyosiy islohotni amalga oshirdi.Siyosiy islohotlarning asosiy maqsadi oshkoralik va kadrlar siyosatini to'g'ri yuritish asosida sovet jamiyatini to'liq demokratlashtirishga e'tibor qaratildi.Afsuski,ikkita bosqich ham yetarlicha natija bermadi Birinchidan,demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish ,boshlangan islohotlarni oxiriga yetkazish mumkun bo'lmadi.Sababi qayta qurishda aniq izchil puxta ishlab chiqilgan dastur yo'q edi.Ikkinchidan,esa bu tizim demokratiya va oshkoralik borasida qilingan ishlar totalitar tuzumni yemirardi.Uchinchidan esa Gorbachyov g'oyasini amalga oshirish mumkin emasdi. Chunki,sotsializimga xos sinfiy munosabatlar,davlat mulkchiligi, milliy va ijtimoiy sohadagi siyosat yakkapartiyaviy rahbarlik kommunistik mafkura mustabid boshqaruv usuli hech qachon demokratiya bilan kelisha olmas edi.Ammo qayta qurishning ikkita bosqichi ham amaliy natija bermadi.

Kadrlar siyosatida ham bir nechta o'zgarish qildi.Ya'ni kadrlar siyosati-davlat Yoki partiya boshqaruvi doirasida rahbar xodimlar ma'muriy apparat,mutaxassislar,ziyolilar o'qituvchilarni tayyorlash, tanlash, lavozimiga qo'yish malakasini oshirish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.Bundan ko'zlangan maqsad kadrlar orqali siyosiy barqarorlik va nazoratni ta'minlash edi.

Qayta qurish siyosatini boshlagan shaxs uning tashabuskori Gorbachyov ichki jamiyat va siyosiy tizimni modernizatsiya qilish, davlat boshqaruvdagi markazlashuvni kamaytirish,iqtisodiy samaradorlikni oshirish,aholini tashabbuskorligi va mavqeni kuchaytirish kabi yo'nalishlarni ko'zlab amalga oshirishga harakat qiladi.Chunki,bu paytda iqtisodiy o'sish sekinlashib,resurslar notug'ri taqsimlash,moddiy yetishmovchiliklar paydo bo'lgan.Gorbachyov bu kabi muammolarni yechish zarur deb bildi va bu siyosatni boshladi.Sovet davlati tomonidan boshlangan qatag'onlarning yana biri O'zbekiston XX asr 80-yillarida "paxta ishi" keyinroq "o'zbeklar ishi" degan nom ostida tarixga kirdi.Bundan maqsad yuzaga kelgan salbiy illatlarni deb kelib chiqqan muammolarni sababi O'zbekiston deb O'zbekistonni tajriba sinov maydoni sifatida tanlab oldi "Paxta ishi"uydirmalaridan boshlangan vaqtida xalq xo'jaligida "jinoiy ishlarga qo'l urgan"xodimlar javobgarlikka tortilib ular xalq xo'jaligida "qo'shib yozishlarga"yo'l qo'yilganlikda ayblandilar.Ya'ni "Paxta ishi" "o'zbeklar ishi"nomini olib kelgan qatag'on milliy tus berib to'liq "o'zbeklar ishi"ga ayalntirishga harakat qiladi va bu maqsadiga erishdi. Buning oxir oqibat natijasi mahaliy rahbar xodimlar ziyolilar ham ta'qib ostiga olina boshladi.O'zbeklarni turli nopok yo'llar bilan daromad orttirib,yengil-yelpi hayot kechiradi degan noto'g'ri tasavvur tug'ilishiga sabab bo'ldi. Paxta ishi oqibatida tazyiq kuchaytirdi.

Xulosa qilib aytganda sovetlar davrida boshlangan qayta qurish oqibatlar O'zbekistonda katta oqibatlarga olib keldi.1985-1989 yillarda o'tkazilgan siyosiy qatag'onlik siyosatining tag zamirida respublikamizni yanada qaramlikda ushlash maqsad qilganligi yoritib berishimiz mumkin.1985-yildan boshlangan "qayta qurish"siyosati O'zbekistonda ham joriy etildi.Bu siyosatning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rishimiz mumkin.Bu siyosatning ijobiy tomoni Sovet tizimidagi zaifliklarni ochib berdi.Bu esa mustaqillik uchun Zamin yaratdi. Salbiy tomonlari islohotlar samarasiz bo'ldi,narx-navo oshdi,taqchilik kuchaydi,odamlar kundalik ehtiyoj mahsulotlarini topishda qiyinla boshladi.Yakuniy xulosa beradigan bulsak qayta qurish siyosati O'zbekistonda katta umid bilan kutib olindi. Sabab bu siyosat erkinlikka,oshkoralikka va islohotlarga yo'l ochdi.Ammo noto'g'ri boshqaruv va chuqur ildiz otgan muammolar sababli bu

siyosat iqtisodiy-siyosiy inqirozga olib kedi.Shu bilan birga ajratishimiz mumkinki bu siyosat O'zbekistonning mustaqillikka intilishda muhim bosqich bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov I.K "O'zbekiston tarixi" 1-127;131;136-betlar
2. Gorbachyov;His life and Times-Willem Taubman.Bu biografik asar.Gorbachyov shaxsiyati,qarashlar va siyosiy faoliyati haqida.
3. Maqola:"O'zbekistonda qayta qurish"davridagi siyosiy,iqtisodiy-ijtimoiy vaziyat O-Bozorov.
4. Bobomurod Tillayev va Isroiljonova Dilshodaxon Adxam qizi "Qayta qurish yillarida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.
5. Yunosova X.XX asrning 80-yillarida O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va ma'naviy hayot.5-58;
6. D.Raxmatova XX asr 50-80- yillarida sovet davlatining O'zbekistonda paxta yakka hokimligi siyosati va uning oqibati (Qashqadaryo viloyati misolida) dissertatsiya.6-82;